



**ЎЗБЕКИСТОН RESPUBLIKASI
MILLIY GWARDIYASI
HARBIY-TEKNIK INSTITUTI**

**ГУМАНИТАР ВА ИЖТИМОЙИЙ ФАНЛАР
КАФЕДРАСИ**

**ЗАХИРИДДИН МУХАММАД БОБУР ҲАЁТИ ВА
МЕРОСИНИ ЎРГАНИШ ДУНЁ ТАЛҚИНИДА
халқаро илмий-амалий конференцияси тўплами
2021 йил 12 феврал**

II-ҚИСМ

**ИЗУЧЕНИЕ ЖИЗНИ И НАСЛЕДИЯ ЗАХИРИДДИНА
МУХАММАДА БАБУРА В МИРОВОЙ
ИНТЕРПРЕТАЦИИ**

**сборник международной научно-практической
конференции
12 февраля 2021 года**

ЧАСТЬ II

**STUDYING THE LIFE AND LEGACY OF ZAHIRIDDIN
MUHAMMAD BABUR IN THE WORLD
INTERPRETATION**

**book of international scientific-practical conference
February 12, 2021**

PART II

Тошкент – 2021

ЎЗБЕКИСТОН RESPUBLIKASI MILLIY GWARDIYASI

ХАРБИЙ-ТЕХНИК ИНСТИТУТИ



ГУМАНИТАР ВА ИЖТИМОИЙ ФАНЛАР КАФЕДРАСИ

ЗАХИРИДДИН МУҲАММАД БОБУР ҲАЁТИ ВА МЕРОСИНИ ЎРГАНИШ
ДУНЁ ТАЛҚИНИДА

халқаро илмий-амалий конференцияси тўплами
2021 йил 12 феврал

II-ҚИСМ

ИЗУЧЕНИЕ ЖИЗНИ И НАСЛЕДИЯ ЗАХИРИДДИНА МУХАММАДА БАБУРА В
МИРОВОЙ ИНТЕРПРЕТАЦИИ

сборник международной научно-практической конференции
12 февраля 2021 года

ЧАСТЬ II

STUDYING THE LIFE AND LEGACY OF ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BABUR IN
THE WORLD INTERPRETATION

book of international scientific-practical conference
February 12, 2021

PART II

Тошкент – 2021

кўрқмас, ҳамisha рақибининг нозик ва кучли жойларини англаб олишга, ундан жанг жараёнида фойдаланишга ҳаракат қилган.

Ҳаётнинг оғир кунларида Бобур ҳамisha аскарлар даврасида бўлар ва шунинг учун ҳам навкарлар уни ҳурмат қилишган. Лекин у каттиқ интизом тарафдори бўлган, тартиббузар, буйрукка бўйсунмаганлар ва айбдорларни каттиқ жазолаган, буйрукка тўла итоаткорликни талаб қилган. Шунинг учун ҳам аскарлари Бобурни яхши кўрибгина қолмай, ундан кўрқар ҳам эдилар, унинг кўл остида кўшинлар яхши ташкил қилинган интизомли ва омилкор лашкарга айланган эди. У инсонга хоё буюк фазилатлардан бири бўлмиш мардликни улуглайди. Унинг фикрича, мардликнинг олий даражада намоён бўлиши деб. Ватан учун душман билан жанг қилиш, зарур бўлса, жонини ҳам қурбон қила олишдир. Мутафаккир бу ўринда ёмон от билан тирилгандан кўра яхши от билан ўлган яхшироқ, дейди. Бобур зўравонлик, ўгрилик, қароқчилик ва таъмагирликни каттиқ қоралайди ва бундайларга нисбатан баъзан бешафқат бўлишни тарғиб қилади. Масалан, унинг аскарларидан бири бировнинг бир кўза ёгини тортиб олгани учун уни жазолагани диққатга сазовордир.

XIV-XVII аср мутафаккирлари бир томондан, асосий эътиборни кўшинлар куч-қудратини ошириш, уларнинг ҳарбий маҳоратини юксалтириш, мамлакат яхлитлиги ва хавфсизлигини сақлашга қаратган бўлсалар, бошқа томондан, давлатни таназзулга олиб боровчи адолатсиз урушларга қарши чиққанлар.

Аждодларимизнинг уруш, унинг ижтимоий тараккиётга салбий таъсири ва кўшинни бошқариш тўғрисидаги қимматли фикрлари бугунги кунда мамлакатимиздаги ихчам, замонавий қурол-яроғ билан қуролланган ва профессионал тайёргарликка эга бўлган миллий армиямизни мустаҳкамлаш, ҳарбий хизматчиларнинг жанговар шайлигини ошириш ва уларда юксак инсоний фазилатларни шакллантиришда муҳим манба бўлиб хизмат қилади.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Негмагов Б. Ўзбекистонда ҳарбий ишлар тарихидан лавҳалар. – Т.: Фалсафа ва ҳуқуқ институти, 2010. 76 бет.
2. Бобур З.М. Бобурнома. – Тошкент.: “Юлдузча”, 1989. – Б. 84.
3. Гулбадан Бегим. Ҳумоннома. – Тошкент.: 1959. – Б. 34.
5. Шарма Л.П. Бобурийлар салтанати. – Тошкент.: “Маънавият” 1998. Б.25.

ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBURNING AFG‘ONISTONDAGI BOG‘LARI VA QO‘SHINIDAGI YANGI TEXNIKA XUSUSIDA

Ahmadov A.A., Elova D.D.

BuxDU tayanch doktarantlari

Zahiriddin Muhammad Bobur (1483-1530 yy) jahon tarixida muhim iz qoldirgan va dunyo xalqlari sivilizatsiyasiga mislsiz hissa qo‘shgan insondir. Bu ulug‘ siymo o‘z nomi bilan o‘rta asrlarda ulkan saltanatga asos soldi, bundyodkor, fan va madaniyat darg‘asi, adolatli va xalqparvar hukmdor, xossos shoir, tarixchi va geograf sifatida tarix sahifalariga o‘zining muhorak nomini abadul-abad muhrladi.

Zahiriddin Muhammad Bobur Afg‘oniston poytaxti Kobulda turib, 21 yil hukmronlik qildi. 1504-1525-yillarda bu zaminda hukmronlik qilar ekan obodonchilik va bunyodkorlik ishlariga katta e‘tibor qaratdi. Bobur har bir harbiy harakatlaridagi g‘alabasi sharafiga bog‘ qurdirishni odat qilgandi. Ushbu odatni Zahiriddin Muhammad Bobur umrining oxirigacha saqlab qoldi.

1526-yil 21-aprel mashhur Panipat (Hindiston) jangida g'alaba qilgan Zahiriddin Muhammad Bobur o'z sharafiga katta bir bog' barpo etdi va o'zi avvalo uning mevasidan bahramand bo'ldi.

Afg'onistonlik tadqiqotchi G.C.G'ayrat "Bobur va uning yaqinlari Kobul shahrida ko'plab bog' - rog'lar va saroylar barpo etdilar. Olamora, Shohoro, Olamganj, Bog'i Bobur va boshlar"[1] - deb yozgandi. Zahiriddin Muhammad Bobur davlatni buvisi Eson Davlat Begim, onasi Qutlug' Nigor Xonim kabilar maslahati bilan boshqargan. Yakkayu-yagona opasi Xonzodabegimni Ahmad Tanbaldek shavqatsiz, ochko'z, qonxo'r, badjahl bekka turmushga bermay, yosh bo'lsada barcha og'irliklarni o'z bo'yniga olgan. Bu kabi dalillarni uning faoliyatidan ko'plab keltirish mumkin.

Zahiriddin Muhammad Boburning Kobulda joylashgan "Bog'i Bobur"dagi maqbarasi uzoq asrlar davomida muqaddas ziyoratgoh bo'lib keldi. Biroq, Afg'oniston zaminida XX asrning 80-yillaridan boshlangan qonli to'qnashuvlar davrida ushbu tabbarruk zamin o'zaro urushayotgan tomonlardan birining harbiy qarorgohiga aylanganligi, anvoiy gul va mevali hamda manzarali daraxtlar o'sadigan bog'da harbiy bronomashina, artileriya, bronetank va harbiylar kazarmasi joylashganligi insonning kayfiyatini xira qilishi tabiiy edi. Bobur izidan xalqaro Bobur ekspeditsiyasi a'zolari 1990-yillarda Afg'onistonga borganlarida ushbu holatdan tashvishga tushgan edilar. O'zbekiston Respublikasi prezidenti Sh.M.Mirziyoyev Hazrat Alisher Navoiyning 580 yilligini nishonlash to'g'risidagi qarorlarida Hirotda joylashgan ulug' adib qabrini obodonlashtirish masalasini dolzarb vazifalardan biri qilib qo'ydilar. Ajab emas, Z.M.Boburning Kobuldagi qabri va bog'i ham hozirgi zamon talablari asosida istiqbolda obodonlashtirilsa degan umidimiz bor.

Doimiy harbiy yurishlar, sarson-sargardonliklar, o'zga yurtida yashash bilan bog'liq ma'naviy va ruhiy zo'riqishlar, Ibrohim Lo'diy onasining zaharlanishi, taxt vorisi bo'lmish Humoyunning og'ir betob bo'lib qolishi, yangi tug'ilgan o'g'li Anvar Mirzoning to'satdan vafot etishi kabi ko'pdan-ko'p omillar tufayli Zahiriddin Muhammad Boburni umrining so'ngida podshohlik ishlari qiziqitirmay qolgandi. Zahiriddin Muhammad Bobur tushkunlikka tushib qolgan, u vafoti oldidan Agradagi o'zi qurdirgan "Zarafshon" bog'idan chiqmay tanholikda yashaydi. Salomatligi yomonlashgan Bobur mislsiz mehr-muhabbat va astoydil e'tiqod bilan o'z jonini o'g'li Xumoyunga sadaqa qilib, 1530 yil 26 dekabrda 48 yoshni ham to'ldirmay hayotdan ko'z yumdi. Zahiriddin Muhammad Bobur Farg'ona vodiysi, Kobul va Hindistondagi hukmronligini qo'shib hisoblasak, 36 yil podshoh bo'ldi. Uning ham o'g'li, qizlari va nabiralari 36 ta bo'lgan.

Zahiriddin Muhammad Boburning jasadi Agradagi o'zi qurdirgan boqqa dafn etildi, vafotidan ancha vaqt o'tganidan keyin xotinaridan biri Dildorcha xonim tashabbusi bilan uning jasadi Kobuldagi "Bog'i Bobur" ga keltirilib qayta dafn etildi.

Ulug' bobokaloni Amir Temurga ham, Zahiriddin Muxammad Boburga ham murakkab tarixiy sharoitda yashashga to'g'ri keldi. Amir Temur mo'g'ullar oyog'i ostida toptalgan Movarounnahrni ozod qilish, mustaqil davlat barpo etish uchun kurashlarga sho'ng'ib ketdi va o'z maqsadiga erishdi. Bobur shayboniylardan o'nglab bo'lmas harbiy zarbalarga to'qnash keldi va 21yil Kobulda xukmdor bo'lib turib qoldi, u yurtiga qaytish yo'llari yopilganligiga ishonch hosil qilgach, o'z orzu - maqsadlarini Hindistonda amalga oshirish uchun 12 ming qo'shin bilan Ibrohim Lo'diyning 100 ming nafar qo'shini va 1000 ta jangovor filiga qarshi tavakkal qilib jangga kirdi. Taqdir uni yo'qladi va raqibi ustidan porloq g'alabaga erishib, yangi davlatga asos soldi.

Zahiriddin Muhammad Boburni shayboniylar bilan bo'lgan ayovsiz janglar u o'z qo'shinini yangi harbiy texnika bilan qurollantirishda, harbiy intizomni o'rnatishda saboq bo'ldi. Zahiriddin Muhammad Bobur janglar sharoitida pistirma qo'yishni mo'g'illardan, poroxli piltiq ishlatishni afg'onlardan, to'lg'amani shayboniylardan, to'p ishlatishni forslardan, fillar bilan jangga kirishni hindlardan o'rgandi. Uning qo'shini sovuq qurollar xanjar, qilich, nayza, qalqon, bilan birga, o't ochar qurollar miltiq (pilta miltiq) va to'plar bilan qurollangandi. Zahiriddin Muhammad Bobur

harbiy harakatlar olib borishda to'satdan dushmanga hujum qilish usulidan keng foydalanardi. U otashin nutqi bilan jangchilarni ruhlantira olgan.[2]

Zahiriddin Muxammad Boburga taqdir begona yurtlarda podshohlik qilishini nasib etdi, muhojirlikda saltanat va davlat sohibi qaytariqa yo'l tutishi, zarur bo'lsa dushmanni do'stga aylantira bilishini, u faqat ezgu ishlar bilan band bo'lish kerakligini amalda isbotlay olgan, bu borada o'rnak olsa arziydigan buyuk dahodir. Shuning uchun mustaqil Hindiston Respublikasining birinchi hukumat rahbari Javoharlal Neru: "Bobur g'oyat sinchkov, zukko inson edi. Biz uni musofir kishi sifatida ba'zan noxolis fikrlar ham bildirar edi, deb o'ylasak, uni hikoyalari o'sha paytda Shimoliy Hindiston achinarli ahvolda ekanligidan dalolat beradi. Hindistonning birligi g'oyasi u uchun asosan umr bo'yi saqlandi... Bobur shu paytgacha o'tgan podshohlar ichida eng madaniy va dilbar shaxsdir. U diniy fanatizmdan uzoq, boshqalar kabi vayronagarchilik qilmadi. U gullar va bog'larni sevardi. Hindistonda turib har doim o'z vatani - O'rta Osiyoni eslardi"[3] - deb ulug' bobokalonimizga yuksak baho bergandi. Ushbu samimiy va dilkash fikrlarni hind millati vakili tomonidan yozilayotganligining o'ziyoq buyuk vatandoshimizga bo'lgan mehr - muhabbatni, faxrlanish va g'ururni bizda yanada kuchaytiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Axmedov B. Amir Temur darslari.-T., "Sharq", 2000. B.90.
2. Sayfiddin Jalil Zahiriddin Muhammad Bobur va shayboniylar. T., 2001. - B.46.
3. Sayfiddin Jalil Bobur haqida o'ylar. T., 2006. -B.46;63.
4. Mirsaydullayev M Boburning kasallik tarixi. T., "Mumtoz so'z", 2013-yil.

BOBURNING HARBIY SAN'AT RIVOJIDA TUTGAN O'RNI

Sattorov A.A.

Milliy gvardiya Harbiy-texnik instituti o'qituvchisi

Sattorova X.N.

Toshkent shahar 276-son umumiy o'rta ta'lim maktabi o'qituvchisi

Bobur barcha temuriyzodalarga xos bo'lganidek, yoshlik vaqtdan ilm-fanni o'rganish bilan birga harbiy ishini ham astoidil egallashga bel bo'lgan edi. Uning ustozlari Hasan Yoqubbek uni harbiy ishiga qanchalik mashqlar qildirib o'rgatgani yuqorida ta'kidlab o'tgan edik. Vaqt o'tib, Bobur hokimiyatga ega bo'lgach, bir qator janglarda shaxsiy namuna ko'rsatishning ahamiyati katta bo'lgani uchun ham Amir Temur bobomiz singari Bobur ham jang-jadallarning oldingi safida bo'lishiga to'g'ri kelar edi. Boburning o'z harbiy faoliyatida doimo "Tangrining inoyati bilan ozchilik ko'pchilik ustidan g'alaba qozonishi mumkin", deb sa'y-harakat qilar edi. U janglarda ko'rsatgan jasorati, harbiy intizomni qattiq tutishi va sarkardalar mahorati to'g'risida doimo qayg'urib, ularni ko'proq mashqlar bilan mashg'ul bo'lishga chorlashi o'z natijalarini berar edi. Masalan Qandahor shahridan olingan kumush tangalarning kattagina qismi qo'shin o'rtasida bo'lib berilgan edi. 1508 yilda Boburga qarshi Mirzo Ulug'bekning o'g'li Abdurazzoq Mirzo Qandahorda o'rnashib olgan arg'un beklari Muqim va Shohbeklarning qo'llab-quvvatlashlari bilan uni hokimiyatdan olib tashlab o'zi hukmdorlikni egallash sa'y-harakatiga tushgan edi. Shu paytda bir tomondan Shayboniyxonning tahdidi ortib borayotgan bo'lsa, ikkinchi tomondan Bobur isyonchilarning tajovuzkorligi oshib borar edi. Mana shunday vaziyatda Bobur o'ziga sodiq kishilardan iborat besh yuz kishilik askarlarni to'playdi. Qolgan beklar va boshqa mansabdorlar ham unga qo'shiladilar. Sodiq askarlar guruhi shahar tashqarisidagi lashkargohni o'rab oladilar va

Бобур оиласида фарзанд тарбияси	242
Xaitov B.T.	
Bobur siyosiga nazar	246
Хөлиқов И.	
Бухоро хонлигининг Бобурийлар давлати билан дипломатик алоқалари	248
Хайдаров А.	
Бобурийлар давлатининг ташкил топиш жараёни	252
Шаюсупова Л.Р., Айтбоев С.С.	
Утонченность природы Захириддина Мухаммада Бабура, как правителя, полководца и поэта	254
Эгамова М.А.	
Захириддин Мухаммад Бобурнинг давлатида солиқ сиёсати	257
Эргашева Г.М.	
Бобур Мирзо асарларида Ватан мадҳи	259
Эргашева М.С.	
Ўзбек халқининг хинд тахтидаги жавоҳири	262

VI-ШҶҒБА. БОБУРНИНГ ЖАҲОН ЖАНГ САЊЪАТИ ТАРИХИГА ҚЎШГАН ҲИССАСИ

Низомиддинов Н.Г.	
Бобурнинг жанг саъяти тарихига қўшган ҳиссаси Бобурнинг «Хинд юриши» ҳақида	267
Тураева С.Р.	
Захириддин Мухаммад Бобурнинг ҳарбий иш тарихидан	275
Rashidov R.R., Fayzullayeva V.J.	
Zahiriddin Muhammad Boburning Gagradagi zafarli yurishlari	281
Мирабдуллаева Ш.А.	
Захириддин Мухаммад Бобурнинг қўшинни бошқаришдаги етакчилик сифатлари	284
Ahmadov A.A., Elova D.D.	
Zahiriddin Muhammad Boburning Afg'onistondagi bog'lari va qo'shinidagi yangi texnika xususida	286
Sattorov A.A., Sattorova X.N.	
Boburning harbiy san'at rivojida tutgan o'rni	288
Насиров К.Ж.	
Нравственные взгляды правителя и мыслителя Захириддина Мухаммада Бабура	291
Джумашев А.Н., Ақромов З.А.	
Военное искусство Захириддина Мухаммада Бабура	293
Абиджанова М.А.	
Бобурнинг ҳарбий фаолиятида жанговар ўртоқлик масаласига функционал ёндашув	295
Мамажонов А., Тургунов А.	
Военные реформы и вооружение в период правления Бабура	299
Alimardonov Z.Sh., Isakov S.X.	
Zahiriddin Muhammad Boburning artilleriya qurol-aslahalari rivojlanishiga qo'shgan hissasi	301
Хайдаров К.А.	
Бобурийлар сулоласининг ҳарбий юришларидаги психологик тамойиллар	304
Мустафоев Г.	
Захириддин Мухаммад Бобурнинг ҳарбий хизматчиларга шахсий муносабати	307
Алижонов А.Т.	
Захириддин Мухаммад Бобур ижодининг ички ишлар ходимларини тарбиялашдаги ўрни	310
Хөлиқов И.Р.	
Захириддин Мухаммад Бобур ватанпарвар саркарда	313
Jumayeva L.I.	
Zahiriddin Muhammad Boburning harbiy yurishlari	316
Насиридинов З.А., Ғиёсов Б.Х.	
Захириддин Мухаммад Бобурнинг фавқулодда вазиятлардаги ҳарбий-сиёсий ютуқлари	318
Rahimov, I. A.	
Buyuk sarkarda- Zahiriddin Muhammad Bobur	320
Шоҳакимов А.Р.	
Бобурийлар давлатининг қўшини ёхуд ҳарбий маъмурияти	323
Розимова Ё.	
Захириддин Мухаммад Бобур маҳоратли ҳарбий саркарда	326
Хайдаров А.У., Раимбоев Д.Х.	
Бобурнинг ҳарбий юришларидаги разведка маҳорати	331
Курганов А.М.	
“Бобуринома”да қўлланилган ҳарбий терминларнинг лингвомаданий хусусиятлари	333
Tursunboyev A.A.	
Zahiriddin Muhammad Boburning sarkardalik mahorati va jangovar taktikasi	335